

**«UzAuto Motors» AJ**  
**XARID XUJJATLARI**

YYXX-0000-0000

2022-06-03


"Tasdiqlayman"  
Ishlab chiqarish va texnologiyalarni  
rivojlantirish bo'yicha  
boshqaruvchi direktor v.b.

I.I. Jo'rayev

Nº	Asosiy parametrlar	Ko'rsatkichlar
1	Model	GSVEM
	Maqsad	Avtomobilarning qo'shimcha ballonlarining quotiruvchi butlovchi qismmini ishlab chiqaradigan muqobil korxonalar bilan butlovchi qism narxini ko'rib chiqish
	Boshlang'ich narxi	379 260 000,00 (uch yuz yetmish to'qqiz million ikki yuz oltmisht ming ) so'm QQS bilan
	To'lov shartlari va to'lov tartibi	Buyurtmachi yetkazib beruvchi tomonidan yetkazib berilgan maxsulotlarni va yetkazib beruvchi taqdim qilgan xisob-varaqlar (Счёт-фактура) asosida xar oyda bir marotaba milliy valyuta sum da to'lov qilinadi.
	Yetkazib berish tartibi	Maxsulotlarni yetkazib berish muddati 10 taqvim kunida amalga oshiriladi
	Maxsulot yetkazib berish joyi (ishni bajarish)	Asaka shahar, Xumo ko'cha 81

Komissiya raisi

**Ishlab chiqarish va  
texnologiyalarni rivojlantirish  
bo'yicha boshqaruvchi direktori  
Ishlab chiqarish bo'yicha funktsional  
guruh**

  
2022-06-08 16:20

**I. I. Jo'rayev**  
2022-06-07 19:33

Komissiya a'zolari

**Xizmat rahbari**  
*Ichki audit xizmati*



2022-06-06 09:20

**B. X. Isomiddinov**  
2022-06-06 08:12

**Boshqarma boshlig'i**  
*Yuridik boshqarm'a (Asaka sh.)*



2022-06-06 13:51

**O. A.**  
**Xudoyberdiev**  
2022-06-06 08:12

**Bosh buxgalter**  
*Buxgalteriya hisobi xizmati*



2022-06-07 12:05

**A. I. Yakubov**  
2022-06-06 08:12

**Iqtisodiy rejalashtirish bo'yicha direktor o'rribbosari**  
*Rejalashtirish va muvofiqlashtirish direktsiyasi*



2022-06-07 08:56

**D. M. Azizov**  
2022-06-06 08:12

**Bo'lim ichida rozilik**

**Xaridlar bo'yicha boshqaruvchi direktor**

*Xaridlar bo'yicha boshqaruvchi direktor*



2022-06-03 15:20

**B. U. XUSAINOV**  
2022-06-03 09:36

**Xaridlar bo'yicha boshqaruvchi direktor o'rribbosari**

*Xaridlar bo'yicha boshqaruvchi direktor o'rribbosari*



2022-06-06 08:12

**F. X. Abdullayev**  
2022-06-03 09:36

**Bo'lim boshlig'i**

*"Maxalliylashtirish" bo'limi (Asaka sh.)*



2022-06-03 14:25

**I. I. To`ychiyev**  
2022-06-03 09:36

**Interyer va kuchlanish qurilmalari bo'yicha menejer**

*Interior va xavfsizlik bo'linmasi*



2022-06-03 11:45

**G. B.**  
**Turg'unboyev**  
2022-06-03 09:36

**Mas'ul**

**Marketing va ta'minot bo'yicha agent**

*Interior va xavfsizlik bo'linmasi*



2022-06-03 09:36

**J. K. Mirzayev**  
2022-06-03 09:36

## **MUNDARIJA**

1. Tanlov ishtirokchilariga ko'rsatmalar.
2. Tanlovnинг texnik qismi.
3. Tanlovnинг narx qismi.
4. Shartnoma loyihasi.

## 1. TANLOV ISHTIROKCHILARIGA KO'RSATMALAR

<b>1</b>	<b>Umumiy tartib</b>	1.1	Mazkur tanlov hujjatlari O'zbekiston Respublikasi quyidagi qonun talablariga muvofiq ishlab chiqilgan. O'RQ-684 sonli «Davlat xaridlari to'g'risida»gi (keyingi o'rirlarda – «Qonun») qonuni va O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 20-fevral kungi «Loyihaoldi, loyiha, tender hujjatlari va kontraktlarni ekspertizadan o'tkazish tartibini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi №PF-3550 sonli (keyingi o'rirlarda – «Farmon») farmoni hamda «Xarid qilish tartib-taomillarini tashkil etish va o'tkazish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida»gi buyruq (Adliya Vazirligi ro'yxat raqami 26.05.2018 y. kungi №3016 (keyingi o'rirlarda – «Nizom»)ga muvofiq ishlab chiqilgan.
		1.2	Tanlov predmeti: Avtomobilning qo'shimcha balonini maxkamlovchi butlovchi qismlarini ishlab chiqaruvchi muqobil korxonalar bilan butlovchi qismlar narxlarini qayta ko'rib chiqish
		1.3	Tanloving minimal qiymati va valyutasi tanlov hujjatlarining narx qismida ko'rsatilgan.
		1.4	Sotib olinadigan tovar (xizmat, ish) uchun texnik topshiriqlar tanlov hujjatlarining texnik qismida ko'rsatilgan.
		1.5	Xarid komissiyasining majlislari onlayn tarzda o'tkaziladi
<b>2</b>	<b>Tanlov Tashkilotchisi</b>	2.1	Tanlov buyurtmachisi «UzAuto Motors» (keyingi o'rirlarda - «buyurtmachi»). Yuridik manzili: O'zbekiston Respublikasi, 170200, Asaka shahri, Humo ko'chasi, 81 «Buyurtmachi» Rekvizitlari: MFO 00073, STIR 200244767 x/r 2021 4000 8005 3230 5001 «Asaka» ATB Asaka filiali
		2.2	Buyurtmachi bilan bog'lanish : Global xarid qilish boshqarmasining Interier va kuchlanish agregatlari bo'linmasi ta'minot va marketing agenti.. email: <a href="mailto:jamshid.mirzayev@uzautomotors.com">jamshid.mirzayev@uzautomotors.com</a> tel: +998781502200 #2 3492 Maxsus axborot portaliga joylashtiriladi.
		2.3	Tanlov komissiyasi ishchi organi «UzAuto Motors» AJ Global xarid boshqarmasi hisoblanadi (keyingi o'rirlarda - «Ishchi organ»).
		2.4	Shartnomaga ega: AO «UzAuto Motors»
		2.5	Tanlov hujjatlari qonun hujjatlari asosida shakllangan besh kishilik komissiya a'zolari tomonidan baholanadi.
<b>3</b>	<b>Tanlov qatnashchilari</b>	3.1	Tanlovda O'zbekiston Respublikasi rezident va norezidentlari qatnashish huquqiga ega. Tanlov hujjatining 4.2 bandida sanab o'tilgan talablar bundan mustasno.
<b>4</b>	<b>Tanlov o'tkazish tartibi</b>	4.1	Tanlovda qatnashish uchun tanlov qatnashchilari Qonun hujjatlari va tanlov hujjatlari talablari va shartlariga muvofiq tijroiy taklifini yuborishlari kerak.

		4.2	Tanlovda qatnashish uchun quyidagi qatnashchilarga ruxsat berilmaydi:
			Soliq va boshqa majburiy to`lovlardan qarzdorlik mavjudligi, bankrotlik yoqasida turganligi, offshor hududda hisob raqamlari mavjudligi, o`zaro affillangan shaxslar borligi yoki insofsiz ijrochilar yagona ro`yhatiga kirib qolganligi sababli qayta tashkil etilayotgan, tugatish va bankrotlik holatlarida turgan tashkilotlar;
			Buyurtmachilar bilan sudsplashish jarayonida yoki arbitraj sudida muxokamada bo`lgan qatnashchilar;
			Insofsiz ijrochilarning yagona ro`yxatida turuvchi qatnashchilar;
			Soliqlar va boshqa majburiy to`lovlar bo`yicha qarzdorligi mavjudlar;
			imtiyozli soliq rejimini ta'minlaydigan va / yoki moliyaviy operatsiyalarni amalga oshirishda ma'lumotni oshkor qilish va taqdim etishni nazarda tutmagan shtatlar yoki hududlarda ro`yxatdan o'tgan va bank hisob raqamlari bo`lgan (offshor hududlar);
			O`zaro affillangan shaxslar tanlovda birga ishtirok etishi mumkin emas
		4.3	Buyurtmachi quyidagi holatlarda ishtirokchini tanlovda qatnashishni diskvalifikatsiya qilish huquqiga ega:
			ishtirokchi tanlov jarayonida qaror qabul qilish uchun yoki boshqa harakatlar uchun to'g'ridan-to'g'ri yoki bilvosita xaridorning har qanday amaldagi yoki sobiq mansabdor shaxsiga, yoki xodimiga, yoki boshqa davlat organiga har qanday shaklda, qimmatbaho narsa, yoki xizmat taklif qilsa;
			ishtirokchi O'zbekiston Respublikasi qonunchiligini buzgan holda adolatsiz raqobat ustunligiga yoki manfaatlar to'qnashuviga ega.
5	<b>Tanlov tili, o'lchov birligi.</b>	5.1	Tanlov taklifi va ishtirokchi bilan buyurtmachi o'rtaida amalga oshiriladigan barcha tegishli yozishmalar (hujjatlar) o'zbek tilida bo'lishi kerak. Tanlov taklifi boshqa tilda bo'lishi mumkin, agar u o'zbek tiliga to'g'ri tarjima qilingan bo'lsa. Tanlov taklifi matnida nomuvofiqliklar aniqlangan taqdirda, bir nechta til ishlataliganda, o'zbek tili ustun deb hisoblanadi. Texnik hujjatlarni ingliz tilida taqdim etishga ruxsat beriladi.
			Taklif umumiy qabul qilingan o'lchov tizimidan foydalanishi kerak.
6	<b>Tanlov taklifi va uni rasmiylashtirish tartibi</b>	6.1	Portalda e'lon qilingan tanlov ishtirokchilari taklifni belgilangan tartibda <a href="http://etender.uzex.uz">http://etender.uzex.uz</a> saytiga joylaydi.
		6.2	Tanlov ishtirokchisi:

			<p>Yakka tartibdagi tadbirkor yoki rezident faqatgina elektron raqamli imzodan (ERI) foydalanib ro'yhatdan o'tishi mumkin bo'ladi.</p>
			<p>Portalga joylangan ma'lumotlar va hujjatlarning haqiqiyligi va ishonchhliligi uchun javobgardir;</p>
			<p>faqat bitta taklif kiritish huquqiga ega;</p>
			<p>takliflarni taqdim etish muddati tugagunga qadar taqdim etilgan taklifni qaytarib olish.</p>
		6.3	<p>Taklif ikki qismdan iborat:</p> <p>Texnik qism. Buyurtmachining texnik talablariga javob berishi va taklif qilinayotgan mahsulotning bat afsil tavsifini o'z ichiga olishi kerak;</p> <p>Narx qismi. Tanlov shartlariga mos kelishi va tanlov taklifining narx qismidagi talablarda ko'rsatilgan ma'lumotlarni o'z ichiga olishi kerak (shu jumladan mahsulot nomi, birlik narxi, barcha soliqlarni o'z ichiga olgan umumiy qiymati, to'lov shartlari, taklifning haqiqiyligi va boshqalar).</p>
		6.4	<p>Korrupsiya holatlariga yo'l qo'ymaslik bo'yicha tanlov ishtirokchilarining majburiy ravishda portalga joylash</p>
		6.5	<p>Tanlov takliflari <a href="http://etender.uzex.uz">http://etender.uzex.uz</a>, portalida e'lon qilingan kundan boshlab 5(besh) kun ichida (17:00 gacha): <a href="http://etender.uzex.uz">http://etender.uzex.uz</a> portaliga joylanadi</p>
		6.6	<p>Tanlov ishtirokchilarining takliflarini amal qilish muddati takliflar tugagan kundan boshlab kamida 10(o'n) kun bo'lishi kerak.</p>
7	<b>Takliflarni berish muddatlari</b>	7.1	<p>Buyurtmachi tanlov takliflarini qabul qilish muddatlarini uzaytirishi mumkin emas, faqatgina tanlovn ni qayta e'lon qilishi mumkin.</p>
		7.2	<p>Tanlovlarni qayta e'loni axborot portalida joylashtiriladi va agar kerak bo'lsa, xaridor veb-saytida yoki boshqa ommaviy axborot vositalarida e'lon qilinadi.</p>
8	<b>Tanlov hujjatlariga kiritiladigan o'zgarishlar</b>	8.1	<p>Zarur bo'lganda, buyurtmachi tanlov hujjatlariga o'zgartirish kiritish to'g'risida qaror qabul qilish huquqiga ega.</p> <p>Tanlov hujjatlariga o'zgartirishlar kiritish to'g'risida qaror takliflarni taqdim etish muddati tugashidan uch kundan kechiktirmay qabul qilinishi mumkin.</p> <p>Tanlov hujjatlariga o'zgartirishlar kiritish jarayonida mahsulot (ish, xizmat) yoki ularning xususiyatlarini o'zgartirishga yo'l qo'yilmaydi.</p> <p>Agar tanlov hujjatlariga takliflarni taqdim etish muddati tugagunga qadar o'zgartirishlar kiritilgan bo'lsa, tanlov hujjatlariga o'zgartirishlar kiritilgan kundan boshlab kamida o'n kunga uzaytiriladi.</p> <p>Shu bilan birga, agar e'londa ko'rsatilgan ma'lumotlar o'zgartirilgan bo'lsa, tanlov e'loniga o'zgartirishlar kiritiladi.</p>

9	<b>Tanlovga takliflari baholash tartibi va mezonlari</b>	9.1	<p>Buyurtmachi komissiya a'zolari ro'yxatini shakllantirishdan avval, har bir komissiya a'zosi haqida ma'lumot kiritib chiqish bilan birga unga shaxsiy kabinet yaratadi.</p> <p>Buning uchun buyurtmachi shaxsiy kabinetning "Komissiya" bo'limiga kirib "Qo'shish" tugmasini bosadi.</p> <p>Komissiyaning har bir a'zosi uchun shaxsiy kabinet yaratilgandan so'ng, har bir a'zo ro'yxatdan o'tkazish jarayonida ko'rsatilgan elektron pochtaga tizim shaxsiy kabinetni faollashtirish uchun havola yuboradi.</p> <p>Shaxsiy kabinetga birinchi marotaba kirilayotganda xarid komissiyasining har bir a'zosi, shu jumladan uning raisi ishtirokchilar bilan affillanganlik xususiyatiga ega aloqalari mavjudligi to'g'risida ma'lumotlarni kiritishi shart.</p>
		9.2	<ul style="list-style-type: none"> <li>- <b>Ball usuli</b> – tanlov taklifining texnika va kvalifikatsion hamda narx qismlarini baholashni hisobga olgan holda eng yuqori ball to'plagan ishtirokchini g'olib sifatida aniqlaydi.</li> <li>- <b>Eng past narx usuli</b> – tanlov takliflarining texnik qismini baholash natijalariga ko'ra elektron tanlovda ishtirok etishni davom ettirishga ruxsat berilgan ishtirokchilar orasidan eng past narxni taklif etgan ishtirokchini</li> </ul>
	 Перечень квалификационных	9.3	Tanlov komissiyasi tanlov g'olibini aniqlash bo'yicha rad etilmagan takliflarni tanlov hujjatlarda ko'rsatilgan mezonlar asosida baholaydi.
		9.4	Tanlov ishtirokchisi taqdim etgan hujjatlarda ko'rsatilgan ma'lumotlar ishonchli bo'lmaganligi aniqlangan taqdirda, tanlov komissiyasi bunday ishtirokchini tanlovda qatnashishdan chetlatishga haqlı.
		9.5	Tanlov hujjatlari muvvafaqqiyatli joylashtirilgandan so'ng, moderatsiyaga yuboriladi. Tanlov hujjatlari moderatsiyadan muvvafaqqiyatli o'tgandan so'ng tizim tanlov hujjatini avtomatik tarzda komissiya a'zolariga yuboradi.
		9.6	Tanlov hujjatlari komissiya a'zolari tomonidan ko'p ovoz yig'ish yo'li bilan tasdiqlanadi. Kommissiya a'zolarining kotibidan tashqari har biri bir marotabadan ovoz berish huquqiga ega.
		9.7	Agar taklifni taqdim qilgan tanlov ishtirokchisi tegishli Qonun va Qarorlar tomonidan qo'yilgan talablarga mos kelmasa yoki taqdim qilingan taklif tanlov hujjatlari talablariga mos kelmasa ishchi organ bu taklifni tanlovdan chetlatadi
		9.8	Agar komissiya a'zolarida tanlov hujjatlari bo'yicha savollar yuzaga kelsa xarid komissiyasining a'zolari va ma'sul kotibi o'zaro chat orqali muloqot qilishlari mumkin bo'ladi.
		9.10	Agar tanlov shartlariga ko'ra tanlov ishtirokchilari turli valyutalarda narx taqdim qilsalar, baholash paytida taklif summalarini O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining tanlov tugashi sanasidagi valyutalar kursi bo'yicha hisoblanadi.

		9.11	Tanlov hujjatlarida va taklifda ko'rsatilgan mezonlar asosida shartnoma bajarilishi uchun eng yaxshi shartlarni taklif qilgan tanlov ishtirokchisi g'olib deb topiladi.
		9.12	Agar komissiya a'zolarida tanlov hujjati bo'yicha e'tirozlar mavjud bo'lsa, buyurtmachida tanlov hujjatlari bir ovozdan tasdiqlanmaganligi haqida ma'lumot aks etadi, buyurtmachi kerakli ma'lumotlarni o'zgartirib, qayta moderatsiyaga jo'natadi, tanlov hujjati moderatsiyadan muvaffaqiyatli o'tgandan so'ng tizim avtomatik tarzda ularni komissiyaga ko'rib chiqish uchun yuboradi. Komissiya a'zolari tanlov hujjatlarini qaytadan ko'rib chiqadilar. Tanlov hujjatlari komissiya tomonidan bir ovozdan ma'qullangandan so'ng, komissiya kotibi yoki raisi buyurtmachiga yuboradi.
		9.13	Tanlov shartlarida narxlarni turli valyutalarda taqdim etish nazarda tutilgan hollarda, chet ellik va mahalliy ishtirokchilarning narxlarini to'g'ri taqqoslash, chet el valyutasidagi takliflarni to'g'ri baholash uchun chet el valyutasida taklif bergan ishtirokchi chet el valyutasida sotiladigan tovar (ish, xizmat) larga solinadigan O'zbekiston Respublikasi qonunchiligidagi nazarda tutilgan amaldagi barcha turdagi soliqlar, yig'imlar, majburiy to'lovlarning joriy stavkalari va foizlarini ko'rsatishi shart. Ishtirokchi ushbu masala bo'yicha berilgan ma'lumotlarning to'g'riliqi va to'liqligi uchun javobgardir.
		9.14	Komissiya a'zolari tomonidan tasdiqlangan tanlov hujjati komissiya kotibi yoki raisi tomonidan buyurtmachiga yuboriladi.
		9.16	Xarid protsedurasi natijalariga ko'ra, har bir mahsulot (ish, xizmat) bo'yicha bir nechta g'oliblar yoki umumiyligi natija orqali aniqlanishi mumkin.
		9.17	Ishtirokchilar tomonidan kelib tushgan takliflar tanlov o'tkazish bo'yicha e'londa ko'rsatilgan talablar asosida tanlov taklifining texnik qismini miqdoriy ko'rsatkichlarini va narx qismini baholash elektron tizim tomonidan avtomatik ravishda amalga oshiriladi. Taklifning texnik qismining miqdori ko'rsatkichlariga ega bo'limgan mezonlarini (ekspert mezonlari) baholash va taqqoslash xarid komissiyasi tomonidan amalga oshiriladi.
		9.18	Tanlov hujjatlarida belgilangan shartlardan kelib chiqib elektron tizim avtomatik ravishda: - tanlov taklifining texnik va narx qismlarini baholashni hisobga olgan holda eng yuqori ball to'plagan ishtirokchini (ball usulidan foydalanganda) - tanlov takliflarining texnik qismini baholash natijalariga ko'ra elektron tanlovda ishtirok etishni davom ettirishga ruxsat berilgan ishtirokchilar orasidan eng past narxni taklif etgan ishtirokchini (eng past narx usulidan foydalanganda) g'olib sifatida aniqlaydi.
10	<b>Tomonlarning javobgarligi va</b>	10.1	O'zbekiston Respublikasi qonunchiligidagi ko'zda tutilgan maxfiylikka rioya qilinishiga quyidagilar javobgar:

	<b>maxfiylik bajarilishi</b>  Согл о конфиден.rag		<ul style="list-style-type: none"> <li>- ishchi organ tarkibiga kiruvchi, kelib tushayotgan tanlov takliflarini hisobga olib boradigan va ularning saqlanganligi va maxfiyligini ta'minlaydigan shaxslar;</li> <li>- komissiya raisi va a'zolari, shuningdek, tanlov takliflarini o'rganish, ma'lumotlar oshkor qilinishi, ishtirokchilar, boshqa komissiya a'zolari va jalb qilingan mutaxassislar o'rtaida til biriktirishlar va boshqa noqonuniy hatti-harakatlar nazorati uchun tashkil qilingan ishchi gurux a'zolari</li> <li>- barcha maxfiy texnik ma'lumotlar (chizmalar, standartlar va h.k) buyutmachining tijorat siri bo'lib, uni oshkor qilmaslik to'g'risida kelishuv tuzish orqali ishtirokchilarga taqdim etiladi.</li> <li>- Tijorat sirini tashkil etuvchi ma'lumotlar, Ishtirokchi tomonidan oshkor qilingan holatda, va bu holat Buyurtmachiga zarar keltirsa, Buyurmachi ushbu zarar miqdorini to'laligicha qoplab berilishini Ishtirokchidan talab qilish huquqiga ega va o'z navbatida Ishtirokchi zarar miqdorini, yo'qotilgan foyda miqdorini hisobga olgan holda, Buyurtmachiga to'laligicha qoplab berishi shart.</li> <li>- Ishtirokchi tijorat siri bo'lgan texnik ma'lumotlarni oshkor qilinishi O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq, fuqorolik, ma'muriy va jinoiy javobgarlikka olib kelishi haqida ogohlantirilganligini tasdiqlaydi.</li> </ul>
		10.2	Shartnomma bo'yicha majburiyatlarni bajarmagan (miqdor, sifat va texnik parametrlar bo'yicha) tanlov g'olib O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari va / yoki tuzilgan shartnomma bo'yicha javobgar bo'ladi.
11	<b>Boshqa talablar</b>	11.1	Agar tanlov ilgari O'zbekiston Respublikasiga yetkazib berilmagan zavod mahsulotlarini taklif qilsa, tanlov komissiyasi tanlov ishtirokchisidan ushbu mahsulotlar haqida uchinchi shaxslardan fikr-mulohaza bildirishni so'rashga haqli.
		11.2	Tanlovda qatnashish istagini bildirgan ishtirokchilar, o'tkazilayotgan tanlov haqida tushuntirish berish uchun ishchi organga murojaat qilish huquqiga ega.
	 Форма подачи запроса на разъяснение	11.3	<ul style="list-style-type: none"> <li>- Elektron tanlov ishtirokchisida tanlov hujjatlari bo'yicha savollar yuzaga keladigan bo'lsa buyurtmachiga ochiq elektron chat orqali tanlov takliflarini berish muddati tugaydigan sanadan kamida ikki kun oldin murojaat qilishi mumkin bo'ladi.</li> <li>-Buyurtmachi so'rov kelib tushgan sanadan e'tiboran ikki kun ichida ushbu so'rovga ochiq elektron chat orqali tushuntirish yuborishi shart.</li> </ul>
		11.4	<p>Quyidagi hollarda tanlov komissiyasi tomonidan tanlov o'tkazilmagan deb e'lon qilinishi mumkin:</p> <ul style="list-style-type: none"> <li>- tanlovda bitta ishtirokchi qatnashsa yoki hech kim qatnashmasa;</li> <li>- takliflarni ko'rib chiqish natijasiga ko'ra tanlov komissiyasi hamma takliflarni tanlov hujjatlari talablariga mos kelmaganini nazarda tutgan holda rad etgan bo'lsa.</li> </ul>

		11.5	Buyurtmachi g'olib bo'lgan taklif qabul qilinishidan oldin istalgan vaqtda tanlovni bekor qilishga haqli. Tanlov bekor qilingan taqdirda, buyurtmachi ushbu qarorning asosli sabablarini maxsus axborot portalida e'lon qiladi.
		11.6	Ishtirokchi asosiy benefitsiar mulkdor to'g'risidagi ma'lumotlarni oshkor etishi kerak.
<b>12</b>	<b>Shartnomani rasmiylashtirish</b>	12.1	Tanlov natijalariga ko'ra shartnoma tanlov hujjatlarida berilgan shartlarda tuziladi.
		12.2	<p>Tanlov o'tkazish to'g'risidagi e'lon komissiya tomonidan 5 (besh) kun ichida tasdiqlangandan keyin buyurtmachi e'lonni savdoga joylashtirishi kerak bo'ladi. Buning uchun buyurtmachi shaxsiy kabinetning "Mening e'lonlarim" bo'limidagi jadvalning eng ohirgi "Harakat" bo'limi orqali "Savdoga joylashtirish" tugmasini bosadi.</p> <p>Tanlov o'tkazish bo'yicha e'lon joylashtirilgandan so'ng kamida 5(besh) kun savdoda faol turadi, shu fursat ichida ishtirokchilar o'z takliflarini elektron tarzda berishlari mumkin bo'ladi. Shundan so'ng avtomatik ravishda eng yaxshi taklifni tanlash bayonnomasi chiqadi, so'ng 2 (ikki) kun ichida komissiya a`zolari bayonnomma asosida g`olibni tasdiqlab beradilar va tomonlar o`rtasida shartnoma tuziladi.</p>
		12.3	Agar tanlov g`olibi tanlov shartlari to'g'risida shartnoma tuzishdan bosh tortsa, shartnoma tuzish huquqi zaxira pudratchiga o'tadi. Bunda zaxira pudratchi tanlov g`olibni taklif qilgan narx bo'yicha shartnoma tuzishi yoki shartnoma tuzishdan bosh tortishi mumkin.

## 2.TEXNIK QISM

### Avtomobilarning qo'shimcha ballon qotirgichi 95023005-BOLT SPA TIRE

Taqdim etilgan tovarlarning miqdori va hajmi (xizmatlar, ishlar hajmi) va ular uchun xarakteristikalar (talablar).

Xizmatlar ko'rsatish (ishlarni bajarish) "Texnik topshiriq" tanlov hujjatlari (bundan buyon matnda - TT) Texnik qismining 1-ilovasida ko'rsatilgan talablarga muvofiq ishtirokchi tomonidan amalga oshirilishi kerak.

Har bir obyekt bo'yicha xizmatlar (ishlar) natijalarini yetkazib berish uchun TT ga muvofiq hujjatlar to'plami tuzilishi kerak.

Tovarlarni yetkazib berish, ishlarni bajarish, xizmatlarni ko'rsatish muddati (yoki jadvali):

Ish muddati 10 ish kuni.

#### Tanlov hujjatlarining texnik qismining 1-ilovasi

Part No	Part Name	Dwg No	Specifications
95023005	BOLT A-SPA TIRE	96534963	<p><b>Material:</b> EDS-M-4252-31 <b>Color:</b> Black <b>Conform to strength division 4T of EDS-G-1111</b> <b>Bolt surface treatment:</b> EZnP-B1 (EDS-M-3106) <b>Non-dimensional RAD:</b> 1.5 <b>Weight:</b> 55 g</p> <p><b>Remark:</b> Tire-175/70 R13 Tire-185/60 R14 Temp Tire[With Spacer]</p> <p><b>Test Specifications:</b> -Torsion torque: MIN 15 Nm</p>

\* При утверждении продукта может быть добавлены дополнительные тесты на валидации

#### Butlovchi qism rasmi



Marketing va ta'minot agenti

Mirzayev J.



### 3.NARXLAR QISMI

Ishtirokchi taklifda QQSni hisobga olgan xolatda hamda QQSni hisobga olmagan xolatda narxlarni ko'rsatishi shart.

Ishtirokchi tovarlar (xizmatlar, ishlar) birligining narxini ko'rsatishga majburdir.

Agar xaridor narxlar jadvalining bat afsil shaklini taqdim etsa, ishtirokchi to'ldirilgan jadvalni elektron shaklda taqdim etishga majbur bo'ladi. Barcha boshlang'ich narxlar formulalari kuzatilishi kerak va narxning tarkibiy qismlari shaffof va tushunarli bo'lishi kerak. Yashirin formulalar yoki narx komponentlari bo'lmasligi kerak.

Buyurtmachi ishtirokchi tomonidan asosiy narx taklifiga qo'shimcha yoki uning o'rniga taklif qilinadigan muqobil narx takliflarini ko'rib chiqmaslik huquqini o'zida saqlab qoladi.

1	Ekspert xulosasi bilan loyiha-smeta hujjatlarini ishlab chiqishning chegaraviy qiymati	<i>379 260 000,00 (uch yuz yetmish to'qqiz million ikki yuz oltmish ) so'm</i>
2	Moliyalashtirish manbasi	O'z mablag'lari
3	To'lov shartlari va to'lov tartibi	Milliy valyuta sumda, bir oyda 2 marotaba tasdiqlangan hisob varaqalar (счётов-фактур) asosida
4	To'lov valyutasi	Sum
5	Bajarish davri	Shartnoma bo'yicha oldindan to'langan kundan boshlab 30 ish kuni.
6	Tovar yetkazib berish joyi (ekspert xulosasi bilan loyiha-smeta hujjatlari)	Asaka shahri, Xumo ko'chasi 81-uy
7	Taklifning amal qilish muddati	10 kun

#### **4.SHARTNOMA LOYIHASI**



Yetkazib berish  
shartnomasi.doc